

O'zbekiston Respublikasi
Kambag'allikni qisqartirish va bandlik
vazirligi huzuridagi
Oila va xotin-qizlar qo'mitasining
2023-yil 31-martdag'i 29-son
buyrug'iiga 9-ilova

**O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi
huzuridagi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, uning hududiy bo'linmalari hamda
mahallalardagi xotin-qizlar faollarida korrupsiyaga qarshi kurash tizimining
holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha**

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Reglament O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi (keyingi o'rnlarda – Qo'mita), uning hududiy va tarkibiy bo'linmalari hamda mahallalardagi xotin-qizlar faollari (keyingi o'rnlarda – Qo'mita tizimi)da korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat yuritishi va korrupsiyaga qarshi tadbirlarni amalga oshirishi to'g'risidagi hisobdorlikni shakllantirish tartibini belgilaydi.

2. Qo'mita tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat yuritishi va rivojlanishi masalalari bo'yicha hisobotlarni (keyingi o'rnlarda – Hisobotlar) shakllantirish va taqdim etish uchun mas'uliyat Komplayens nazorat bo'yicha bosh mutaxassis zimmasida bo'ladi.

2-bob. Hisobot turlari va uni tuzish davriyiligi

3. Qo'mita tizimida quyidagi hisobot turlari nazarda tutiladi:

a) Qo'mita tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko'rsatishi to'g'risidagi, shu jumladan, Qo'mitaning korrupsiyaga qarshi Dasturi yoki yo'l xaritasi tadbirlarini amalga oshirilishi bo'yicha hisobot har chorakda Komplayens nazorati bo'yicha bosh mutaxassisini tomonidan mazkur Nizomning 3-bobida belgilangan tartibda tuziladi;

b) Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid davlat dasturida rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to'g'risidagi hisobot har chorakda Komplayens nazorati bo'yicha bosh mutaxassisini tomonidan mazkur Nizomning 4-bobida belgilangan tartibda tuziladi;

4. Hisobot muntazam ravishda ushbu Nizomda belgilangan tartibda va muddatlarda, Qo'mita tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holatidan, shuningdek, hisobot davrida korrupsiyaga qarshi tadbirlar o'tkazilgan yoki yo'qligidan qat'iy nazar, tuziladi.

5. Yilning IV choragi uchun hisobot tuzilmaydi, uning o'rniga yillik hisobot tayyorlanadi.

6. Har choraklik va har yillik hisobot O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisiga (Qo'mita hay'atiga) topshiriladi. Bosh mutaxassis har chorakda, keyingi chorak

birinchi oyining 25 sanasidan kechiktirmay har choraklik Qo‘mitaning umumiylisobotini O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga (keyingi o‘rinlarda – Agentlik) ko‘rib chiqishi uchun kiritib boradi.

7. Qo‘mitaning yillik hisobotidagi umumiyl axborot Internet tarmog‘idagi rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi. Mazkur axborot Bosh mutaxassis tomonidan tayyorlanadi.

3-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risida hisobotni shakllantirish tartibi

8. Qo‘mita tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risidagi hisobot korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini monitoring va nazorat qilish, shuningdek, Qo‘mita tizimining korrupsiyaga qarshi Dastur yoki Yo‘l xaritasi tadbirlarini amalga oshirilishini monitoring qilish maqsadida tuziladi.

9. Hisobot har chorakda Komplayens nazorati bo‘yicha bosh mutaxassis tomonidan hisobot davridan keyingi oyning 20 sanasidan kechiktirmay tuziladi va Tashkilot rahbariga (Tashkilot hay’atiga) ko‘rib chiqish uchun topshiriladi.

10. Hisobotni shakllantirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) hisobot davridan keyingi oyning 2 sanasidan kechiktirmay, Bosh mutaxassis ushbu oyning 10 sanasigacha tegishli rahbarlar tomonidan tasdiqlangan mazkur Nizomga 1-ilovaga muvofiq hisobot taqdim etishi to‘g‘risida xabarnoma yuboradi;

b) qo‘mitaning markaziy apparati bo‘linmalarining hisoboti Bosh mutaxassis tomonidan tuziladi va Qo‘mita o‘rnbosari tomonidan tasdiqlanadi;

Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati to‘g‘risidagi hisobotning biron-bir bo‘limi bo‘yicha tadbirlar o‘tkazilmagan taqdirda, tadbirlar amalga oshirilmaganligi sababini ko‘rsatish lozim.

v) hisobotlarga kiritilgan axborot tegishli hujjatlar nusxalari va boshqa ma’lumotlarga asoslangan bo‘lishi kerak;

g) bosh mutaxassis ushbu Nizomga 2-ilovada ko‘rsatilgan shaklda Qo‘mita tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tizimning faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risidagi umumiylisobotni tuzadi hamda qo‘srimcha ravishda unga ushbu Nizomga 1-ilovadagi shakl bo‘yicha Qo‘mita tizimi bo‘yicha tuzilgan hisobotdagini ma’lumotlarni kiritadi. Hisobotda asosiy axborotni o‘zida aks ettirgan qisqacha ma’lumotnomaga va takliflar bo‘lishi kerak. Yillik hisobot o‘z ichiga o‘tgan yilning xuddi shunday ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan solishtirma tahvilni ham qamrab olishi kerak.

11. Qo‘mita tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risidagi hisobotlar va korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risidagi umumiylisobotni tuzishda Bosh mutaxassisdan zarur hujjatlar, tushuntirish va statistikani so‘rash va olish huquqiga ega.

12. Bosh mutaxassis qisqa ma’lumotnomaga biriktirilgan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risidagi umumiylisobotini hisobot davridan keyingi oyning 21 sanasigacha Qo‘mitaga taqdim etadi.

4-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashga oid davlat dasturlarida rejorashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish tartibi

14. Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid Davlat dasturida rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risidagi hisobot ushbu Nizomga 3-ilovaga muvofiq shaklda tuziladi.

15. Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid Davlat dasturida rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risidagi hisobot Bosh mutaxassis tomonidan Qo‘mitada korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risidagi umumiyligi hisobot bilan bir vaqtda tuziladi.

16. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Davlat dasturida rejalashtirilgan tadbirlarning amalga oshirilgani to‘g‘risidagi hisobot Rais tomonidan ko‘rib chiqilgandan keyin Agentlikka yuboriladi.

5-bob. Yakuniy qoidalar

17. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Qo‘mitaning ichki idoraviy hujjatlarga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritilgan taqdirda ushbu Nizom qayta ko‘rib chiqilishi lozim.

Nizomga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritishga Bosh mutaxassis mas’ul bo‘ladi.

O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Oila va xotin-qizlar Qo'mitasi, uning hududiy bo'linmalari hamda mahallalardagi Xotin-qizlar faollarida korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobtni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha Nizomga 1-ilova

**O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi
huzuridagi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi va uning hududiy bo'linmalari,
mahallalardagi xotin-qizlar faollarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining
faoliyat ko'rsatishi to'g'risida
hisobot**

Tashkilot nomi:	
Hisobotni tayyorlagan xodim (Korruptsiyaga qarshi kurashish uchun mas'ullar):	FISH, lavozimi, tuzilmasi
Hisobot davri:	
Hisobot tayyorlangan sana:	

Nº	Tadbirlar guruhining nomlari	Tadbirlarning nomlari	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar	Ijro to'g'risida belgi	Ijro etilmagan bo'lsa, ijro etilish kutilayotgan muddat	Bajarilganlikni tasdiqlash, bajarilmagan bo'lsa sabablari

t/r	Tadbir	Natijalar
II. Siyosatlar va protseduralar		
1.	Ichki hujjatlarni moslashtirish	Tashkilotda hisobot davri uchun moslashtirilgan korruptsiyaviy xavfxatarlarni kamaytirish bo'yicha choralar yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga oid tartib-taomillarga ega bo'lgan ichki hujjatlarni (siyosatlar, reglamentlar, standartlar, yo'riqnomalar va sh.k.) ko'rsatish zarur.
2.	Xavf-xatarli vazifa va tartib-taomillar kesimida korruptsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirishga oid yangi korruptsiyaga yangi korruptsiyaga qarshi tartib-taomillar va choralar hamda korruptsiyaga qarshi masalalarni tartibga soluvchi ichki hujjatlarni ishlab chiqish	Hisobot davrida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan korruptsiyaga qarshi kurashish sohasiga kiritilgan sohalarni tartibga soluvchi ichki hujjatlarni (siyosatlar, reglamentlar, standartlar, yo'riqnomalar va sh.k.) ko'rsatish zarur.
II. Shaxsiy namuna		
3	Tashkilot rahbari va uning o'rindbosarlarining ichki tadbirdargi chiqishlari (nutqi).	3-6-bandlarda tashkilot tizimi rahbarlari va ularning o'rindbosarlarining qonunchilik talablariga rivoja qilish, korruptsiyaga nisbatan murosasiz bo'lish, tarkibiy bo'linmada belgilangan korruptsiyaga qarshi nazorat va tartib-taomillarga amal qilishning muhimligi to'g'risidagi pozitsiyasi, fikr mulohazalari ochiq e'tirof etilgan tadbirlarni ko'rsatish lozim.
4	Korruptsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha ichki kommunikatsiyani tarqatish (Tashkilot rahbari va uning	

	o'rinbosarlarining nomidan).	
5	Tashkilot rahbari va uning o'rinbosarlarining OAVdagi fikr-mulohazalari.	
III. Xavf-xatarlarni baholash		
6	Tashkilotda korruptsiyaviy xavf-xatarlar bo'yicha har yillik baholash o'tkazish	Ha o'tkazilgan\yo'q o'tkazilmagan (sabablari ko'rsatiladi) jarayonda (qaysi bosqichdaligi ko'rsatiladi)
7	Hisobot davri uchun Tashkilotda ish jarayonda yangi aniqlangan korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va ularning darajalari (yuqori, o'rta, past).	Yangi korruptsiyaviy xavf-xatarlar qaysi jarayonlarda aniqlanganligi, ularning darajasi sanab o'tiladi. Qanday korruptsiyaviy xavf-xatarlar qayta baholandи, yangi daraja, bahoni o'zgartirish sabablari va korruptsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish bo'yicha takliflar. Tashkilotning korruptsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi ilova qilinadi.
8	Hisobot davrida aniqlangan korruptsiyaviy xavf-xatarlarni tartibga solish bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlar	
9	Qoldiq korruptsiyaviy xavf-xatar yuqori bo'lgan aniqlangan korruptsiyaviy xavf-xatarlar soni	Qoldiq tavakkal yuqori bo'lgan korruptsiyaviy xavf-xatarlarning foizdagi nisbati ko'rsatiladi
10	Qoldiq korruptsiyaviy xavf-xatar o'rta va undan past darajagacha kamaytirilgan aniqlangan korruptsiyaviy xavf-xatarlar soni	Qoldiq korruptsiyaviy xavf-xatarlar o'rta va undan past darajagacha kamaytirilgan korruptsiyaviy xavf-xatarlar umumiy soniga foizdagi nisbatini ko'rsatish zarur.
IV. Korrupsiyaga qarshi amalga oshiriladigan tartib-taomillar		
11	Tashkilotda aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi holatlari va qabul qilingan choralar	Tashkilotda aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi holatlarning sonini ko'rsatish yoki aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi holatlari reestrini ilova qilish zarur.
12	Xodimlar tomonidan har yili manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiya qilish.	Har yillik manfaatlar to'qnashuvini deklarasiyalash tartib-taomillaridan o'tgan xodimlarning tashkilotdagи umumiy xodimlar soniga foizlardagi nisbatini ko'rsatish zarur. Har yili manfaatlar to'qnashuvi deklarasiyasini amalga oshirishi shart bo'lgan manfaatlar to'qnashuvini deklarasiyalash tartib-taomillaridan o'tgan xodimlarning tashkilotdagи umumiy xodimlar soniga foizlardagi nisbatini ko'rsatish zarur.
13	Ishga olingan xodimlar va nomzodlar ustidan o'tkazilgan tekshiruvlar soni.	Tashkilotga ishga qabul qilingan xodimlar sonini va tashkilotdagi lavozimiga nomzodlar tekshiruv sonini ko'rsatish zarur. Tekshiruv o'tkazilmagan bo'lsa sababini ko'rsatish zarur.
14	Hisobot davrida o'tkazilgan kontragentlar tekshiruvlari soni	Hisobot davrida o'tkazilgan kontragentlar tekshiruvlari sonini, tekshiruvlar natijalari bo'yicha ijobiylar salbiy xulosalarning foizlardagi nisbatini ko'rsatish zarur. Tekshiruv o'tkazilmagan bo'lsa sababini ko'rsatish zarur.
15	Amalga oshiriladigan boshqa korruptsiyaga qarshi tartib-taomillar	Mavjud bo'lganda ushbu bo'limda ko'rsatilmagan boshqa amalga oshiriladigan korruptsiyaga qarshi tadbirlarni ko'rsatish
V. Ta'lim va kommunikasiya		
16	Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha treninglar o'tkazish: barcha xodimlar uchun; korruptsiyaviy tavakkallchilikka eng ko'proq moylilik ehtimoli bo'lgan vazifalarni bajaruvchi bo'linmalar uchun.	Treninglar turi va shakli, o'qitilgan xodimlar soni, ularning lavozimlari darajasi va bo'linmalarni ko'rsatish
17	Tashkilotga yaqinda ishga olingan xodimlar uchun treninglar o'tkazish.	Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha treninglardan (umumiy, tanishuv) o'tgan yangi xodimlarni umumiy yangi xodimlar soniga foizlardagi nisbati treninglar mavzusi kesimida ko'rsatish
18	Xodimlarning korruptsiyaga qarshi qonunchilik talablari	Tadbir ishtiropchilarining maqsadli guruhini,

	va bo'linmada amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi choralardan xabardorligini oshirishga oid boshqa tadbirlar	ularni soni (imkonli bo'lsa), mavzusi va turini (masalan, tanlovlari, viktorinalar, so'rovnomalari va b. ko'rsatiladi) va uning yakunlarini ko'rsatish.
19	Korrupsiyaga qarshi kurash uchun ma'sullar tomonidan bajarilgan korrupsiyaga qarshi kurash me'yordi mavzusida axborot-tarqatma materiallari.	Korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga amal qilish zaruriyati to'g'risidagi, shu jumladan, ularning to'g'ri talqin qilinishi va ularga to'g'ri amal qilish to'g'risidagi xabarnoma va boshqa tarqatma materiallari.
20	Xodimlarning ahloq-odob madaniyatini shakllantirish, ularni korrupsiyaga qarshi kurash tizimi va korruptsiyaga qarshi qonunchilikning talablari xaqida xabardor qilishning boshqa usullari	Masalan, binolardagi axborot plakatlari va boshqa materiallar, skrinsvayerlar, ishchi kompyuterlar ekraniga qo'yiladigan suratlar va boshqalar.
21	Fuqarolik jamiyati va bo'linma kontragentlari uchun korruptsiyaga qarshi tadbirlarni o'tkazish	Fuqarolik jamiyati vakillari uchun korrupsiyaga qarshi tadbirlarni o'tkazishning soni, nomlanishi, mohiyati va natijalarini ko'rsatish (masalan, korrupsiyaga qarshi kurash kuni, korruptsiyaga qarshi mavzudagi ishlar tanlovi). Shartnomalariga korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlar kiritilgan yangi kontragentlarning yangi kotragentlarning umumiy soniga foizlardagi nisbati.

VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va qoidabuzarliklar to'g'risidagi xabarlar. Ta'sir choralari

22	Xatti-harakatlar, shu jumladan, potensial xatti-xarakatlar uchun aloqa kanallariga kelib tushgan xabarlar soni	Xabarlar sonini quyidagi ma'lumotlarni ham kiritgan holda ko'rsatish: kelib tushgan sanasi kelib tushgan aloqa kanali, xabar mavzusi, tegishli hisobotni ilova qilish
23	Xizmat tekshiruvi o'tkazilgan; Korrupsiyaga qarshi qonunchilik buzilganligi to'g'risida tasdiqlangan holatlar (shu jumladan, me'yoriy-huquqiy hujjatlar va maqolalar kesimida) aniqlangan; Bo'linmada belgilangan korrupsiyaga qarshi nazorat va tartib-taomillarning buzilish holatlari aniqlangan (shu jumladan, ichki hujjatlar kesimida); Aybdorlar aniqlangan holatlar soni	Har bir band bo'yicha holatlar sonini ko'rsatish.
24	Qabul qilingan ta'sir choralari.	Qanday korreksiyalash choralari, shu jumladan, intizomiy choralar, ichki nazorat tizimida qanday kamchiliklar aniqlandi va nazoratni kuchaytirish uchun qanday choralar taklif qilindi.

VII. Monitoring va nazorat

25	Hisobot davrida mavjud korrupsiyaga qarshi kurashish talablar, nazorat tadbirlari va tartib-taomillar bajarilishi ustidan tekshiruvlar o'tkazilganligi	Tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha mas'ullar tomonidan o'tkazilgan tekshiruv tadbirlarini, shu jumladan, ularning sonini quyidagi kesimda ko'rsatish Tekshiruv ob'ektlari (boshqarma, bo'lim); Tekshiruv mavzusi (masadan, xaridlar, kadrlar); Tekshiruv tadbirlari turi (audit, tavakkal tranzaktsiyalari monitoringi yoki protseduralari va b.); Tekshiruv tadbirlari xarakteri (rejali, rejadan tashqari).
26	Bo'linmada belgilangan nazorat tadbirlari va tartib-taomillar buzilish holatlari aniqlanganmi va ularga nisbatan qo'llanilgan ta'sir choralari?	Qaysi tartib-taomil yoki vazifani bajarishda qanday qoidabuzarliklar aniqlangan? Aniqlangan holatlar sonini ko'rsatish. Vazifa va tartib-taomillarni bajaruvchi shaxslar uchun qanday tavsiyalar tayyorlangan. Ular qanday rasmiylashtirilgan (masalan, buyruq yoki boshqa ichki hujjatlar)?

Xulosalar: Hududiy va tarkibiy bo'linmalarda korrupsiyaga qarshi choralarni amalga oshirishning asosiy natijalarini ko'rsatish, korruptsiyaga qarshi kurashish tizimi holatiga umumiy baho berish, zaruriyat tug'ilganda

avvalgi davrlar ko'rsatkichlari bilan taqqoslama tahlil o'tkazish, qoniqarli natijalarga erishganlik yoki erishmaganlik sabablarini ko'rsatish zarur.

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va korrektsiyalovchi tadbirlar rejasi: kelgusi hisobot davrida hisobdorlikning alohida elementlarini yaxshilash imkonini beruvchi asosiy tadbirlarni ko'rsatish zarur.